

ALISHER NAVOIYNING FORSCHA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNI QO‘LLASH MAHORATI

(“Farhod va Shirin” dostoni tili misolidada)

Sunatulla Soyipov,

JDPI o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

soyipov67@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan forscha asliy sifatlar aniqlangan va ularning doston tilini sinonimik jihatdan boyitganligi, ifoda imkoniyatini kengaytirganligi, vazn va qofiya, shakl va ma‘no mutanosibligini ta‘minlaganligi asardan iqtiboslar keltirish yo‘li bilan ilmiy tahlil etilgan va ular xususida umumlashma xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: asliy sifatlar, nisbiy sifatlar, sinonim, ekvivalent, tilshunoslik, vazn, qofiya, ma‘no, ilmiy, adabiyotshunoslik.

Аннотация. В данной статье выявлены персидские исконные прилагательные, использованные в языке дастана Алишера Навои “Фархад и Ширин,” и научно проанализированы их синонимическое обогащение языка дастана, расширение возможностей выражения, обеспечение баланса размера и рифмы, формы и значения путем цитирования произведения и сделаны обобщенные выводы по ним.

Ключевые слова: исконные прилагательные, относительные прилагательные, синоним, эквивалент, лингвистика, метр, рифма, значение, научный, литературоведение.

Abstract. This article identifies the original Persian adjectives used in the language of Alisher Navoi's "Farhad and Shirin" epic and scientifically analyzes their synonymous enrichment of the epic's language, expanding expressive possibilities, ensuring the balance of meter and rhyme, form and meaning through citation of the work, and draws generalized conclusions about them.

Keywords: native adjectives, relative adjectives, synonym, equivalent, linguistics, meter, rhyme, meaning, scientific, literary studies.

Kirish. Ma‘lumki, Alisher Navoiy yashab ijod etgan XV-XVI asrlarda ham Markaziy Osiyo, Xuroson hattoki, Hidistonda ham boshqa tillarga nisbatan fors tilining nufuzi ancha yuqori bo‘lib, unga e‘tibor kuchli edi, chunki o‘sha davrlarda fors adabiyoti namoyandalari ko‘p va o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari bo‘lib, ular mazkur tilda buyuk-buyuk asarlar yaratgan edilar. Shu sababli ham fors tilining har tomonlama mavqei va darajasi mazkur hududlarda boshqa tillarga nisbatan sezilarli darajada yuqori edi.

Shuningdek, Hidistonning poytaxti Dehlida yashab, ijod etgan o‘z davrining buyuk muttafakkirlaridan biri hamda ota-bobolari asli Turkiston turkiylaridan bo‘lgan Amir Xusrav Dehlaviy ham o‘zining barcha asarlarini fors tilida yozgan. Shunga qaramasdan o‘zbek xalqining faxri bo‘lgan hamda o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan eng ulug‘ shoir va mutafakkirlardan biri bo‘lgan Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarini o‘z ona tilisi bo‘lmish turkiy tilda yozdi, natijada u o‘zining turkiy tilda yozilgan o‘ttizdan ortiq asarlari bilan o‘zbek adabiy tili shuhratini nafaqat Xuroson va Makaziy Osiyo balki, butun dunyoga yoydi.

Alisher Navoiy o‘z asarida bu borada “...turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan begigacha sart (fors) tilidan bahramanddirlar. Hatto, turk shoirlari forsiy tilda rangdor she‘rlar va hikoyalar yuzaga chiqara olarlar” degan edi. Shunday ulug‘ turkiy

mutafakkirlardan biri Alisher Navoiydir, chunki u o'zining "Devoni Foniy" asarini fors tilida yozgan.

Bizga ma'lumki, o'zbek xalqi tili tarixining o'ziga xos xususiyatlari hozirgi kungacha xalqimiz ijodkorlari tomonidan yaratilgan dostonlar, shuningdek, qimmatli asarlar tili misolida hozirgi kun "o'zbek tilshunosligi talablari darajasida to'liq ilmiy tadqiq etilmagan" [1.15] degan xulosaga kelishimiz uchun yetarlicha asosga egamiz.

Shuning uchun ham biz, bugungi kunga kelib, o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, boshqa tillardan o'zbek adabiy tiliga so'z, ibora va shakllar turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablarga ko'ra o'zlashganligini ko'ramiz. Shularni e'tiborga olib, o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibidagi so'zlar tarixiy shakllanishiga ko'ra faqat turkiy tillarga xos bo'lmay, balki fors, arab, mug'ul, uyg'ur tillari so'z va iboralariga ham xos deb aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy asarlari tilini va o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda bir qator ilmiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Xususan, K. Aliev va Q. Sodiqovning "O'zbek adabiy tili tarixidan" asarida o'zbek adabiy tilining shakllanish bosqichlari hamda undagi o'zlashma qatlam masalalari yoritilgan. U. Tursunov, Sh. Muxtorov va Sh. Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" hamda M. Asqarova va boshqalarning "O'zbek tili praktikumi" asarlarida sifat so'z turkumining grammatik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, M. Abdusamatov va L. Xalilovlarning fors tiliga oid tadqiqotlari o'zbek tiliga kirib kelgan forscha so'zlarning kelib chiqishi hamda grammatik xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va lingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. "Farhod va Shirin" dostoni matni asosida undagi forscha asliy sifatlar aniqlanib, ularning leksik hamda grammatik xususiyatlari o'zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, misollar asosida ularning asar tilining badiiyligi, vazn va ma'no mutanosibligini ta'minlashdagi o'rni ilmiy jihatdan izohlandi.

Tahlillar va natijalar. Dunyoda lug'at boyligi o'z so'zlaridan tashkil topgan hech bir xalq tili yo'qki, jahonng barcha tillari boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning o'z shakli va ma'nolarini qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolgan va ular o'sha tilga o'zlarining grammatik qurilishi, so'z yasalishi, imlo va talaffuz qoidalari asosida uyg'unlashgan. Shular qatori o'zbek adabiy tili va shevalariga ham boshqa tillardan ko'plab so'z va iboralar o'zlashganki, ular asosan ilmiy, siyosiy, ijtimoiy, harbiy hamda ma'naviyatga oid so'z va iboralar hisoblanadi. Bunday so'zlar ko'proq so'zlashuv hamda kitobiy tillar orqali o'zlashganligiga hech qanday shubha yo'q. Bu borada yana shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, tadqiqotimiz natijalariga ko'ra o'zbek adabiy tiliga arabcha so'zlar ko'proq kitobiy, forscha va mo'g'ulcha so'zlar esa so'zlashuv nutqi orqali o'zlashganligini ko'ramiz.

Tarixdan bizga o‘zbek va fors xalqlari azaldan yonma-yon yashab, bir-birlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarda bo‘lib kelganliklari ma‘lum. Bu haqida tojikistonlik akademik B.G‘ofurov o‘z asarida: “O‘zbek va fors xalqlari o‘rtasidagi yaqinlik melodiy asrdan boshlangan” [2.100] deb yozadi. Shunday ekan, mazkur xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar keyingi asrlarda yanada mustahkamlandi va rivojlandi, natijada o‘zbek adabiy tili o‘z lug‘at tarkibini ma‘lum darajada arab so‘zlari bilan bir qatorda, forscha o‘zlashmalar hisobiga boyitdi.

Shuning uchun ham bo‘lsa kerakki, hozirgi kunda “O‘zbek adabiy tili leksikonida ko‘proq maishiy, san‘at, hayvonot dunyosi, o‘simliklar, qishloq xo‘jaligi, tabiat hodisalari, vaqt-masofa, o‘rin-joy va boshqa sohalarga oid forscha so‘zlar ko‘proq uchraydi” [2.110]. Shularni e‘tiborga olib, biz o‘zbek adabiy tilining tarixini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining bizga qoldirgan qimmatli va boy adabiy hamda ma‘naviy meroslarini tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Shunday ekan, Alisher Navoiy adabiy merosini adabiy nuqtai nazardan tadqiq etishimiz va o‘rganishimiz qanchalik zarur va ahamiyatli bo‘lsa, uning asarlari tilini hamda asarlari tili misolida o‘zbek adabiy tili lingvistikasi tarixini tilshunoslik nuqtai nazardan o‘rganishimiz shunchalik zarur va ahamiyatlidir. Bu sohada hozirgi kunga qadar tilshunos olimlarimiz tomonidan ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Albatta, bunday yutuqlar tahsinga sazovordir. Shunga qaramasdan, Alisher Navoiy asarlari tilida qo‘llanilgan o‘zashma so‘zlarni qiyosiy jihatdan, shuningdek, tilshunoslik nuqtai nazardan tafsiloti bilan o‘rganish, ilmiy jihatdan tahlil qilish, ular xususida ilmiy-nazariy hamda umumlashma xulosalar chiqarish borasida ko‘plab izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir, chunki bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar hali bisyor.

Darhaqiqat, Aliser Navoiyning o‘zbek adabiy (turkiy) tilida yozilgan asarlarida boshqa tillar so‘zlari singari ko‘plab forscha so‘z va iboralar, so‘z birikmalari hamda ayrim qo‘shimchalar ham uchraydi. Shoirning asarlari tiliga xos bo‘lgan bunday holatlarni ayrim tilshunos olimlar uning ikki tilda birdek, bir vaqtning o‘zida ijod qiganligi bilan izohlaydilar. Shuningdek, ko‘plab taniqli turkigo‘y shoirlar hamda ular qatori Alisher Navoiyning ham bitmas-tuganmas durdona asarlari tilini o‘rganishimiz barobarida shoirning o‘z asarlarida o‘zlashma so‘zlarni qo‘llash mahoratini tadqiq etishimiz va ularga yetarlicha baho berishimiz uchun hali ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borishga to‘g‘ri keladi.

Buyuk shoir hamda davlat arbobi Alisher Navoiy tilshunos olim sifatida o‘zbek adabiy tilining til sifatida vujudga kelishiga birinchilardan bo‘lib asos solgan va uni shakllantirish, rivojlantirish hamda lug‘at tarkibini mislsiz darajada boyitish yo‘lida o‘zining katta hissasini qo‘shgan ulug‘ mutafakkirlardan biridir. Shu sababli ham o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi va taraqqiyotini tilshunos olimlar haqqoniy ravishda Alisher Navoiyning tabarruk nomi bilan bog‘laydilar. Shularni e‘tiborga olib, biz, ushbu maqolamizni Alisher Navoiyning buyuk hamda uni butun jahonga tanitgan asarlaridan

biri bo'lmish "Xamsa"si tarkibiga kiruvchi "Farhod va Shirin" dostoni tili va unda qo'llanilgan forscha asliy sifatlarni tilshunoslik nuqtai nazardan o'zbek tili sifatlari bilan leksik, grammatik hamda qiyosiy jihatdan tahlil va tavsifini amalga oshirishga bag'ishladik.

Asliy sifatlari o'zbek adabiy tili grammatikasida "predmetning to'g'ridan-to'g'ri belgisini anglatadi", – deb ta'riflanib, "bunday sifatlarga quyidagi so'zlarni kiritish mumkin" deyiladi va misol tariqasida mazkur so'zlar keltiriladi: oq, qizil, sariq, pushti, yaxshi, yomon, katta va hokazo [3.282]. Fors tilida sifatlari asliy va nisbiy bo'ladi. Asliy sifatlari bevosita predmetning belgisini bildiradi va nisbiy sifatlari esa predmetning belgisini uning boshqa biror predmet bilan bo'lgan munosabatiga ko'ra bilinadi [4.248]. Shuningdek, yana o'zbek tilida "predmetning belgisini darajalab ko'rsata oladigan -roq qo'shimchasini erkin qabul qila oladigan sifatlari asliy sifatlari" [5.133] deyiladi. Fors tilida ham xuddi o'zbek adabiy tilidagi singari predmetning belgisini anglatuvchi asliy sifatlari mavjud bo'lib, ular xuddi o'zbek adabiy tili asliy sifatlari kabi darajalanadi [6.133].

Xususan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tiliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda qo'llanilgan va hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lgan yoki iste'moldan chiqib ketgan boshqa so'z turkumlariga xos bo'lgan so'zlar qatori forscha asliy sifatlari ham ko'plab uchraydi. Bu boradagi fikrimizga misol tariqasida dostonidan forscha asliy sifatlari qo'llanilgan quyidagi baytlarni keltiramiz. Masalan:

Ki chun bu uyda qilg'ung naqsh debo,

Kerak uy tarhi dog'i bo'lsa zebo (19-bet).

Yasalsun borcha oyin birla zebo,

Tutulsun borig'a iksunu debo (29-bet) [7].

Yuqorida dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan baytlarning har ikkalasida ham shoir forscha asliy sifatlardan "zebo" so'zini qo'llagan bo'lib, ushbu so'z asar muallifi tomonidan o'zbek adabiy tilidagi "chiroyli" so'zi o'rnida va unga sinonim sifatida istifoda etilganligi ko'rinib turibdi. Alisher Navoiy shunga o'xshash forscha asliy sifatlarning bir qanchasini ushbu asari tilida ustalik bilan o'rinli qo'llaganki, ulardan asosan asar tilining chiroyli, rang-barang, vazn va ma'no, shakl va mazmun mutanosibligini, shuningdek, musiqiyiligini ta'minlashda o'ziga xos tarzda foydalangan. Shu sababli ham uning barcha asarlari tili o'sha davr xalq tiliga yaqin bo'lib, ular mukammalligi, falsafiyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, misol tariqasida keltirilgan mazkur baytlarda qo'llanilgan va forscha asliy sifatlardan biri bo'lgan "zebo" so'zining leksik hamda grammatik ma'nolariga ahamiyat beradigan bo'lsak, bu so'z hozirgi kunda ham o'zbek adabiy tilida faol muomalada bo'lgan forscha o'zlashma asliy sifatlardan biri sanaladi va mazkur so'z ushbu baytlarda o'zbek tilidagi "chiroyli" so'zi o'rnida qo'llanilgan va bu "zebo" so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida asliy sifat hisoblanadi. Uning o'zbek tilidagi sinonimi "chiroyli" so'zi esa nisbiy sifatlari sirasiga kiruvchi so'zdir. Shundan ko'rinib turibdiki,

“zebo” soʻziga oʻxshash forscha asliy sifatlardan bir qanchasini oʻzbek adabiy tiliga oʻz asarlari tili misolida Alisher Navoiy kabi taniqli oʻzbek shoir va muttafakkirlari olib kirganlar va bu bilan ular oʻzbek adabiy tilining nazmdagi ifoda imkoniyatini kengaytirishda, asarlari syujetining izchilligini, shuningdek, ularning vazn, shakl va maʼno mutanosibligini, musiqiyiligini taʼminlashda unumli foydalanganlar.

“Zebo” soʻzini Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan mazkur baytlarda ham oʻzbek adabiy tilidagi “chiroyli” soʻzi oʻrnida soʻz turkumi jihatidan sifat, gap boʻlagi nuqtai nazaridan aniqlovchi vazifasida qoʻllanganligini bayt va ularning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Birinchi bayt:

Ki chun bu uyda qilgʻung naqsh debo,

Kerak uy tarhi dogʻi boʻlsa zebo.

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Chiroyli uy quray desang, uning ichiga naqshli matolar bilan ishlov ber.

Ikkinchi bayt:

Yasalsun borcha oyin birla zebo,

Tutulsun borigʻa iksunu debo.

Baytning tabdili mazmuni:

Hammasini oddiy yoʻl bilan chiroyli joyga aylantiraman desang, barcha joyga qora atlas matoni tut.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilini oʻrganishimiz barobarida shoir mazkur asari tilida forscha asliy sifatlardan “zebo” soʻzini oʻn ikki marta qoʻllanganligini va barcha hollarda mazkur soʻzdan hozirgi oʻzbek tilidagi “chiroyli” leksimasi oʻrnida soʻz turkumi jihatidan sifat va gap boʻlagi nuqtai nazaridan aniqlovchi vazifasida istifoda etganligini koʻramiz. Biz bu boradagi fikrimizni asoslash maqsadida yuqorida dostonidan “zebo” soʻzi qoʻllanilgan ikki baytni keltirdik.

Bundan tashqari yana muallif oʻzining ushbu asari tilida forscha asliy sifatlardan “chobuk” soʻzini ham bir necha bor qoʻllagan boʻlib, mazkur soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilida deyarli uchramaydi va u hozirgi kunda muomaladan chiqib ketgan soʻzlar qatoridan oʻrin olgan. Ammo bu kabi forscha asliy sifatlarning bir qanchasini Alisher Navoiy, Bobur kabi mumtoz adabiyotimiz namoyandalari oʻz asarlari tilida oʻzlashma soʻz sifatida qoʻllaganlar va ulardan maʼnon ifodalovchi oʻzbek tili soʻzlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida foydalanib, natijada mazkur forscha soʻzlar hisobiga oʻz asarlari tilining soʻzga boyligini, ifodaliligini, shuningdek, rang-barangligini taʼminlaganlar.

Forscha “chobuk” soʻziga toʻxtaladigan boʻlsak, mazkur soʻz Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida 17 marta qoʻllanilgan boʻlib, bu soʻz leksik jihatidan oʻzbek tiliga “chaqqon” soʻzi maʼnosida tarjima qilinadi. Shunday ekan, muallif oʻz asari tilida ushbu soʻzdan xuddi shunday maʼnoni ifodalashda foydalangan boʻlib, uni soʻz turkumi jihatidan sifat va gap boʻlagi nuqtai nazaridan aniqlovchi vazifasida qoʻllagan va

ular hisobiga o‘z asari tilining jozibadorligini, shuningdek, syujeti izchilligini ta’minlashda o‘rinli va unimli foydalangan. Bu boradagi fikrimizni asoslash maqsadida dostonidan “chobuk” so‘zi qo‘llanilgan bir nechta baytni iqtibos sifatida keltiramiz:

Sumanbar bori zebou nozuk,

Hunarvarlar bag‘oyat chustu chobuk (38-bet).

Yana bir ustodi chobuk erdi,

Ki ham luk, san’ati ham nozuk erdi (54-bet).

Ki ey chobuk sipahdoriyi dilovar,

Qo‘lingda baxt yoru charx yovar (218-bet) [7].

Ushbu iqtiosga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shoir “chobuk” so‘zini har uchchala baytda ham o‘z leksik hamda grammatik ma’nosida xuddi shunday ma’noni ifodalovchi o‘zbek tili so‘zlariga sinonim tarzida qo‘llaganki, mazkur forscha so‘z baytlarning deyarli barchasida so‘z turkumi jihatidan sifat, gap bo‘lagi nuqtai nazaridan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan. Biz buni asardan iqtibos sifatida keltirilgan bayt va ularning dabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin:

Birinchi bayt:

Sumanbar bori zebou nozuk,

Hunarvarlar bag‘oyat chustu chobuk.

Ushbu baytning mazmuni:

Nozaninlarning barchasi chiroyli va nozik kishilar edi, hunarmandlar ham ularga o‘xshab g‘oyatda harakatchan va chaqqon kishilar edi.

Dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan bayrtlarning birinchisi tabdili mazmuniga ahamiyat beradigan bo‘lsak, muallif ushbu bir baytning o‘zida forscha asliy sifatlardan to‘rttasini qo‘llagan. Ular: “zebo”, “nozuk”, “chust”, “chobuk” kabilar bo‘lib, ulardan zebo-chiroyli; nozuk-nozik; chust-harakatchan; chobuk-chaqqon kabi leksik ma’noni ifodalovchi forscha sifat so‘z turkumiga oid so‘zlardir. Ushbu forscha so‘zlarning barchasini asar muallifi ushbu baytda “chobuk” so‘zi singari o‘z leksik hamda grammatik ma’nosida qo‘llaganki, ular mazkur baytning shakl va ma’no, vazn hamda qofiya mutanosibligini, shuningdek, tilining sinonim so‘zlarning qo‘llanishi jihatidan rang-barangligini ta’minlagan.

Keltirilgan baytlarning ikkinchisiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ham “chobuk” hamda “nozuk” kabi forscha asliy sifatlar qo‘llanilgan bo‘lib, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, “chobuk” so‘zi o‘zbek tiliga “chaqqon”, “nozuk” so‘zi esa “chiroyli, ko‘rkam” kabi leksik ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar sifatida qo‘llanilgan.

Mazkur forscha “nozuk” so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tiliga “nozik” shaklida o‘zlashgan bo‘lib, uni muallif fors tilida qanday leksik hamda grammatik ma’noni ifodalasa, o‘z asari tilida ham ulardan xuddi shunday leksik hamda grammatik ma’noni ifodalashda foydalangan. Buni biz qiyosiy jihatdan anglashimiz uchun ushbu bayt va uning tabdili mazmunini keltiriamiz.

Bayt:

*Yana bir ustodi **chobuk** erdi,*

*Ki ham luk, san'ati ham **nozuk** erdi.*

Baytning mazmuni:

*Yana biri **chaqqon** hunarmand bo'lib, u ko'rinishi jihatidan ham hunari nuqtai nazardan ham **nozik** kishi edi.*

*Yana bir ustodi **chobuk** erdi,*

*Ki ham luk, san'ati ham **nozuk** erdi.*

Shundan ko'rinib turibdiki, asardan misol tariqasida keltirilgan mazkur baytning birinchi misrasidagi “chobuk” so‘zi o‘zbek adabiy tilidagi “chaqqon”, ikkinchi misrasidagi “nozuk” so‘zi esa, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘zbek adabiy tilidagi “chiroyli” so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan. Shunday ekan, usbu baytda qo‘llanilgan “nozuk” so‘zining asl kelib chiqish ma’nosiga etimologik nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, bu so‘z sifat so‘z turkumiga oid leksima bo‘lib, leksik jihatdan o‘zbek tiliga “yupqa”, “yengil” so‘zlari ifodalaydigan leksik ma’noda tarjima qilinadi. Lekin bu (asliy sifat) so‘z o‘zbek tiliga ma’no jihatidan biroz o‘zgarishga yuz tutgan holatda “chiroyli” so‘ziga yaqin bo‘lgan ma’noni ifodalab keluvchi sinonim so‘z sifatida o‘zlashgan. Asarda ham Alisher Navoiy “nozuk” so‘zidan o‘zbek adabiy tilidagi “chiroyli” so‘zi leksik ma’noni ifodalashda foydalangan desak, haqiqatdan xoli bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz.

“Chobuk” so‘zi “Farhod va Shirin” dostonidan misol tariqasida keltirilgan baytlarning uchinchisida ham yuqoridagi baytlarda keltirilgan ma’nosida qo‘llanilganligi ko‘rinib turibdi. Bunga alohida e’tibor qaratamiz va bayt bilan uning tabdili mazmunini bir-biri bilan ma’no jihatidan qiyoslaymiz.

Bayt:

*Ki ey **chobuk** sipahdoriyi **dilovar**,*

Qo'lingda baxt yoru charx yovar.

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

*Ey **chaqqon** va **jasur** sarkarda qo'lingdagi yor va peshonangga bitilgan taqdir senga baxt keltiradi.*

Mazkur baytning birinchi misrasida “chobuk” so‘zidan tashqari yana “dilovar” singari forscha nisbiy sifat ham qo‘llanilgan. Ushbu “dilovar” so‘zi o‘zbek tiliga “jusur”. “qo‘rqmas” so‘zlari leksik ma’nosida tarjima qilinadi. Shunday ekan, biz misradagi “dilovar” so‘zini shoir o‘z asarida “jasur” so‘ziga sinonim sifatida qo‘llanilganligini yuqorida dostonidan misol tariqasida keltirilgan quyidagi bayt tabdili mazmunining ifodasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, fors tili asliy sifatlardan bo‘lgan “ravshan” so‘zi ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol muomalada bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar sirasiga kiradi. Mazkur so‘zning ifodalaydigan leksik hamda grammatik ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu so‘z asliy sifat hisoblanib, o‘zbek tiliga leksik jihatidan “yorug” so‘zi ma’nosida

tarjima qilinadi va asosan gaplarda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. Alisher Navoiy o‘zining boshqa asarlari singari “Farhod va Shirin” dostoni tilida ham koplalab forscha o‘zlashma so‘zlar bilan bir qatorda, “ravshan” so‘zini o‘zbek tilidagi “yorug‘” so‘zi o‘rnida unga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo‘llaganki, bu so‘z boshqa forscha o‘zlashma so‘zlar qatori “Farhod va Shirin” dostoni tilining ta’sirchanligi hamda ifoda imkoniyatini ma’lum darajada kengaytirgan, shuningdek, vazn va qofiya mutanosibligini ta’minlagan.

Bu borada yana shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilini tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etishimiz natijasida unda asar muallif tomonidan forscha asliy sifatlardan 88 turi qo‘llanilganligi aniqlandi va ular qatnashgan bir qancha bayt va misralarni misol tariqasida keltirib, ularning leksik hamda grammatik jihatdan tahlilini amalga oshirdik.

Suningdek, Alisher Navoiy o‘zining “Farhod va shirin” dostoni tilida ko‘plab forscha asliy sifatlarni o‘zbek tili sifatlariga sinonim hamda ekvivalent tarzida qo‘llab, ulardan mazkur asari tilining ma’lum darajada jozibadorligi, rang- barangligi, ifoda imkoniyati, hamda xalqchilligini ta’minlashda foydalanganligi aniqlandi va ularning ilmiy-qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ular xususida umumlashma ilmiy-nazariyxulosalar chiqarildi.

Xulosa. Alisher Navoiy ushbu dostoni tilining ilmiy tahlilini amalga oshirilishi natijasida unda shoir forscha sifat so‘z turkumiga oid o‘zlashmalarni ustalik bilan o‘rinli qo‘llab, ularni o‘zbek adabiy tili leksikoniga olib kirib, mazkur so‘zlar hisobiga o‘zbek adabiy tili sinonimik, shuningdek, ifoda imkoniyatlari va uning lug‘at boyligini beqiyos darajada kengaytirganligi aniqlandi va ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birgalikda yana “Farhod va Shirin” dostoni tilida o‘zbek tili sifatlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo‘llanilgan forscha asliy sifatlardan bir qanchasini ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan birga keltirildi. Ular quyidagilar: Tez – o‘tkir; shirin – mazali, totli; bolo – tepa, baland; zinda – tirik; mast – mast; monand – o‘xshash; pir – qari, qariya, ulug‘; zisht – xunuk; xub – yaxshi; zo‘r – kuchli; ba’d – yomon; zor - qayg‘uli; past – past; buzug – katta, ulug‘; turfa – qulay, chiroyli; kuhan – eski; shod – shod; zibo – chiroyli; nozuk – ixcham, yupqa, chiroyli; chust – chaqqon, birdan; qahrabo – sariq; zilol – tiniq, toza; toza - yangi; kund – botir, qo‘rqmas; shod – xursand; dono – bilimli, bilimdon; mushkul – qiyin; garm – issiq; tiyra – xira; beh – yaxshi; gulhan – chiroyli; siyah – qora.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алиев К., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. Тошкент., 1972. –Б., 15.
2. Ғуломов Б.Г. истори таджикского народа. Москва., 1952., ст.99-100.
3. Турсунов У., Мухторов Ш., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент., Ўзбекистон., 1992. –Б., 282.
4. Асқарова М., Юнусов., Йўлдошев М., Муҳаммедова Д. Ўзбек тили практикumi. Тошкент., 2006., -Б., 133.
5. Abdusamatov M. Fors tili. Sharq., 2007., -Б., 248.
6. Халилов Л. Форс тили. Тошкент., Ўқитувчи, 1992., -Б.,136.
7. Эркинов А. Фарход ва Ширин. Ғофур Ғулом. Тошкент., 1989. –Б., 19, 29, 38, 54, 218.